

POEZIYADA FRAZEMALARDAN FOYDALANISH MAHORATI

M.Vafoyeva (SamDU)

Qaysi bir poetik asarni o'qimaylik, ijod ahli qaysi mavzuda qalam tebratmasin, xoh u tabiat tasviri, xoh inson qalbi va uning orzu-umidlari, muammolari haqida fikr yuritmasin, unda ko'chma ma'noli so'z va so'z birikmalari, frazemalardan o'z his-tuyg'ularini, tug'ilgan fikr – kechinmalarini obrazli, ta'sirchan bayon qilishda foydalanganligining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, frazemada tasvir obyekti, undan kelib chiqadigan ma'no so'z ma'nosiga nisbatan keng va murakkab. Shu sababli so'zda mavjud bo'lmagan ma'no nozikliklar frazemalarda mujassam bo'lganligi uchun ham ijodkorlar o'quvchida estetik tuyg'uni uyg'otishda, she'r ohangdorligini, tasvir mukammalligini ta'minlashda iboralardan ham foydalanib, uning yangi ma'no qirralarini ko'rsatishga, individual-muallif frazemalar yaratishga harakat qiladi:

Sevinch qaynar, jildirar, sof kumushida,

O'n ikki qiz izidan *xayol yo'l soldi*. (Oybek)

«O'ylanish» holatini Oybek «xayol yo'l soldi» tarzida ifodalasa, shoir Abdulla Oripov

Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,

Eslab *xayolga toldim*, birinchi muhabbatim.

deb «xayolga tolmoq» ko'rinishida aks ettirgan.

Shuningdek, tilimizda tun tugab, kun boshlanish paytini odatda, «tong otmoq» iborasi bilan ataymiz:

Tong otar chog'ida juda sog'inib,

Bedil o'qir edim, chiqdi oftob . (G'.G'ulom)

Shoir Turdi Farog'iy esa bu ma'noda «subh yaqo yirtmoq» frazemasini qo'llaydi: Har qanda g'ami do'st dili porani istar,

To subh yaqo yirtmadi – mehr o'lmadi paydo.

Abdulla Oripov ijodida bu frazema “*tong g'unchasi lab ochmoq*” tarzida qo'llangan:

Hali *tong g'unchasi ochmasidan lab*,

Nahor farog‘atin o‘ylamay taqir,
Kimsasiz dalaga ko‘zni o‘qalab,
Chiqib kelganingni ko‘rdim-ku axir. (A.Oripov)

Yoki Abdulla Oripovning “Ona sayyora” she’ridan keltirilgan

Quloqqa chalinar otlar dupuri,
Sor burgut o‘zini o‘ljaga urar,
Sharqda cho‘pon yoqqan gulxanning nuri
Shimol sayyohiga ko‘rinib turar.
Ana, Himolayning bag‘rida bir qiz,
Yelkada ko‘zasi - borar buloqqa.
Sohilda uchrashdi ikki qalb yolg‘iz,
Shivir-shivirlari kelar quloqqa.

Baytda fikrni jozibali va jonli ifodalashda “eshitmoq“ ma’nosida “*quloqqa chalinmoq – quloqqa kelmoq*“ sinonim frazemalaridan o‘rinli foydalanganligini ko‘rish mumkin.

Iboralarda ma’no kuchli darajada ifodalanish bilan birga, obrazlilik ottenkasiga ham ega bo‘ladi. So‘z ustalari frazeologizmlar ma’nosini bo‘rttirish, konkretlashtirish maqsadida ikki sinonim yoki bir-biriga yaqin ma’noli frazeologik birlikni bir kontekst doirasida ketma-ket qo‘llaydi:

*Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo-englik qiling* (T.Farog‘iy).

Shoir she’rning ta’sirchanligini, ohangdorligini oshirishda tilda mavjud “bir yoqadan bosh chiqarmoq” frazemasiga yaqin ma’noli iboralarni qator keltirish bilan uslubiy ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan:

Safga tizil nabiram, otajonim tur endi,
Mustaqillik nash‘asin, haqqing bordir, sur endi.
Qo‘ling berib qo‘llarga, bir tan bo‘lib yur endi,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin
O‘zbekning o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin (A.Oripov).

Ko‘rinadiki, poeziyada sinonim yoki yaqin ma’noli iboralarning yonma-yon, ketma-ket qo‘llanilishi shu asarning uslubiga xos bo‘lgan ruh va ohangni vujudga keltiradi. O‘quvchining butun diqqatini tasvirlanayotgan asar voqeasiga to‘la jalb etadi. Asarda ifodalangan mazmunni har xil shaklda va har xil ma’no nozikligida berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tasvirlanayotgan shaxs yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirish uchun shoir ba’zan matn talabi bilan ibora tarkibidagi komponentlarni almashtirib, kengaytirib qo‘llaydi, natijada ibora qo‘shimcha ma’no ottenkalariga ega bo‘ladi:

Lo‘ttiboz oshnodir ishi bitguncha,

Eshagi kechuvdan toki o‘tguncha (A.Oripov).

Mazkur misrada tildagi “suv (loy)dan o‘tmoq” iborasi tarkibidagi “suv (loy)dan” komponentini “kechuvdan” so‘zi bilan almashtirgan.

Yoki

Qaydadir shoir kuylaydi behol:

Ko‘nglim ham bu kecha oyday yarimta... (A. Oripov)

Adabiy tildagi “ko‘ngli yarimta” iborasi tarkibiga “oyday” so‘zini;

Vatan! Mening bir qismatim shu bir so‘zda hal,

Balki men ham *baxsh eturman* unga *jon-tanni* (A.Oripov)

“jon baxsh etmoq” frazemasi tarkibiga shoir “tanni” so‘zini kiritib, iborani individual-ijodiy kengaytiradi, natijada uning ekspressiv bo‘yoqdorligi yanada ortib boradi.

Frazeologik birlik tarkibini kengaytirishda nafaqat so‘z, balki so‘z birikmalari ham faol ishtirok etadi. Adabiy tilda mavjud bo‘lgan *ko‘ngli oq frazeologizmi* tarkibiga “xuddi o‘sha paxtasidek” [*Faxr eturman men xalqimning san’ati bilan // Uning ko‘ngli xuddi o‘sha paxtasidek oq.* (A. Oripov)] o‘xshatishli so‘z birikmasini kiritish bilan umumtil frazemasi murakkablashib, uning ta’sirchanlik, uslubiy mahsuldorlik darajasi yanada ortib borgan.

Gap tarkibidagi frazeologik birliklar o‘zidan oldingi yoki keyingi so‘z bilan munosabatga kirishganda, ba’zan o‘sha gapga aniqlik kiritishni, o‘sha sharoitga

moslashishni talab qilgan hollarda frazeologik birlik komponentlaridan biri boshqa soʻz bilan almashtiriladi, natijada frazeologik sinonimning yangi varianti, individual-muallif koʻrinishi vujudga keladi. Mavjud asos frazeologik birlikdagi komponent maʼnodosh yoki boshqa bir soʻzlarga almashilgan holda qoʻllanishi mumkin. Albatta, frazema komponentlaridagi oʻzgarishlar yozuvchining badiiy tilga ijodiy munosabati, nutq ehtiyoji, muayyan shart-sharoit, matn talabi bilan yuz beradi, zarur emotsional-ekspressiv noziklikni hosil qiladi, tilda mavjud asos frazeologizmning leksik variantini yuzaga keltiradi. Masalan, tildagi *pehona(si)ga bitmoq* frazemasida *Sohibqiron* dramasida *manglay(i)ga bitmoq* tarzida qoʻllanadi. Frazema tarkibidagi “pehona(si)ga” komponentini uning ogʻzaki soʻzlashuv uslubiga xoslangan sinonimi “manglay(i)ga” soʻzi bilan almashtirilishi frazemaning taʼsirchanligini oshirishga xizmat qilgan hamda birinchi frazemaning leksik varianti vujudga kelgan: *Kishilikning manglayiga bitgan shoirni // Sohibqiron Amir Temur qabul aylagay.* (A.Oripov)

Maʼlumki, frazeologik variantlanish talabiga koʻra “turli-tuman leksik, grammatik oʻzgartirishlar tufayli biri ikkinchisidan oʻsib chiqqan boʻlishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi; asosida ayni bir obraz yotishi; ayni bir maʼnoni anglatishi; oʻzaro oʻsib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent boʻlishi shart¹.

Darhaqiqat, variant iboralar ham xalq tilida, badiiy nutqda mustaqil ibora sifatida keng qoʻllanib, keyinchalik adabiy tildan mustahkam oʻrin olishi mumkin.

Shoir oʻz gʻoyasini oʻquvchi ongiga toʻlaroq yetkazishda, oʻquvchining diqqat eʼtiborini jalb etishda, maʼnodosh frazemalardan ham oʻrinli foydalanadi, bu esa shoirona mahoratdan, qalam kuchining oʻtkirigidan dalolat beradi:

Bir nafas taklifingga tashrif etsa mabodo,

Har qanday shoirning ham *pir boʻlar hafsalasi* (A.Oripov).

«biror ishni qilishga, biror kishiga boʻlgan ishonch-xayrixohlik yoʻqola yozdi» maʼnosini anglatuvchi «hafsalasi pir boʻlmoq» iborasini Abdulla Oripov

¹ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966, 145- b.

o‘zining “Boshpana” she’rida “*hafsalasi sovimoq*” shaklida qo‘llab, individual-muallif frazeologizm yaratadi:

To hayot ekansan bu olam aro
Boshingga savollar tushgay rang-barang
Gohida shukr aylab sevinsang, goho
Juda ko‘p narsadan sovir *hafsalang* (A.Oripov).

Tilimizda “kishini yuksak darajada izzat – hurmat qilmoq” (O‘TFL, 44) ma’nosini ifodalash uchun *bosh(i)ga ko‘tarmoq - kaft(i)da olib yurmoq* frazeologik sinonimlari qo‘llanadi. Abdulla Oripov o‘zining “Sohibqiron” she’riy dramasida xuddi shu frazeologik sinonim qatoriga mansub *kiprigida ko‘tarmoq* individual – muallif sinonimini yaratgan:

*Olam yuki qadar buyuk qudratingizni
Kiprigimda ko‘targayman muhabbat bilan.*

Ana shunday individual – muallif frazeologik sinonimlari qatoriga “o‘lim” ma’nosini anglatuvchi *umr(i) barham topmoq, ajal qo‘ng‘irog‘in(i) chalmoq* kabi frazeologik birliklarni ham kiritish mumkin: *Mana bugun barham topdi ikkita umr // Ikkisi ham bir onadan tug‘ilgan edi.* (A. Oripov); *Yashamoq sening ham haqqing edi-ku // Ajal qo‘ng‘irog‘in ne uchun chalding.* (A. Oripov)

Shu bilan birga, individual – muallif frazeologik sinonimlar mumtoz o‘zbek poeziyasiga oid matnlarda ham uchrashi kuzatildi. Masalan, adabiy tildagi *aql(i)ni yo‘qotmoq* frazemasini “o‘z harakatlarini ongli ravishda boshqara olmaydigan darajaga etmoq” (O‘TFL, 25) ma’nosini anglatadi. Xorazmiy ijodida esa bu ma’noda *aqli boshidan ketdi* frazemasini qo‘llanadi:

*Xorazmiyning ketib aqli boshidin,
Turur tek surati yo‘q jon ichinda.*

Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida “yaxshi-yomonni, foyda-zararni bilmoq; hayot tajribasiga ega bo‘lmoq” ma’nolarini anglatuvchi *issiq-sovuq ko‘rdim, ochchiq-chuchuk tottim* singari frazeologik sinonimlardan foydalangan: *Gahe toptim falakdan notavonlik, Base ko‘rdum zamondan kamronlik Base issiq-sovuq ko‘rdim zamondan, Base ochchiq-chuchuk tottim jahonda.*

Umumtildagi ko‘p ma’noli “*jon bermoq*” frazemasining bir ma’nosi “hayot bag‘ishlamoq” (O‘TFL, 96) [Masih anfosi yanglig‘ *jon berur* farsuda jismimga] bo‘lib, Bobur ijodida shu frazemaga ma‘nodosh *jon aylamoq* frazemasini qo‘llangan: *Joni yo‘q jismima jon aylabsen*; “xursand bo‘lmoq” ma‘nosini ifodalashda esa ko‘ngl(i)ni xursand etmoq - ko‘ngl(i)ni shod etmoq - ko‘ngl(i)ni g‘amdan ozod etmoq kabi frazemalardan ustalik bilan foydalanganligini kuzatish mumkin: *Yor yog‘lig‘idin ko‘ngulni xursand ettim*; *Bir noma bila ko‘ngulni shod etgaysen*; *Majruh ko‘ngulni g‘amdin ozod ayla* kabi. Bu misralar orqali shoir nafaqat ta’sirchanlik va bo‘yoqdorlikni ta’minlaydi, balki o‘quvchi qalbini go‘zal tuyg‘ular bilan ham boyitib boradi.

Shunday qilib, ijodkorlar ijtimoiy hayot, davr ruhidan kelib chiqib, asar saviyasini oshirishda tilda mavjud frazemalardan individual-ijodiy foydalanadi. Iboralarni o‘rnida qo‘llash matnga uslubiy mahsuldorlik olib kirishi bilan birga badiiy-estetik qimmatini kuchaytiradi, she‘r ohangdorligini, obrazlilikini, xalqchilligini ta’minlaydi.

Biz maktab, akademik litsey, kollej, oliy ta’limda o‘quvchilarga nasriy va nazmiy asarlarni o‘rgatish jarayonida ularning til xususiyatlariga, shu jumladan, so‘z va frazemalarning ma’no qirralariga ham e’tibor qaratish lozim. Chunki so‘z va frazemalarning ma‘nosini anglashda o‘quvchilarga yuqoridagi kabi misollar vositasida fikrlarni asoslab berish ularning asar mazmun – mohiyatini chuqurroq idrok etishlariga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati (O‘TFL). – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 382 b.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari (frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya va omonimlik). – Toshkent: Fan, 1966. – 264 b.
3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari (monografiya). – Toshkent: Muharrir, 2013. – 300 b.

4. Oripov A. Saylanma: She'rlar va dramatik doston. – Toshkent: Sharq, 1996. – 464 b.

5. Oripov A. Sohibqiron. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 140 b.

6. Shoh va shoir. Z.M.Bobur. Nashrga tayyorlovchi Hasanxo'ja Muhammadxo'ja o'g'li. – Toshkent: Sharq, 1996. – 92 b.